



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

O'ZBEKISTON BYUDJET TIZIMIDA IJTIMOYIY HIMOYA XARAJATLARINING O'RNI

Rustamova Dilnoza Adhamjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich magistranti

Xamdamov Shavkat Komilovich

Ilmiy rahbar: PhD, prof Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu keltirilgan maqolada ijtimoiy himoya xarajatlarining O'zbekiston davlat byudjeti tizimi va iqtisodiyotida tutgan o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy himoya xarajatlarini davlat byudjetidan moliyalashtirish orqali sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, davlat byudjeti xarajatlari, ijtimoiy sug'urta tizimi, pensiya tizimi.

Annotation: This article analyzes the role of social protection expenditures in the system of the state budget and the economy of the Republic of Uzbekistan. It also highlights how financing social protection expenditures from the State Budget contributes to addressing existing problems in the sector.

Keywords: social protection, state budget expenditures, social insurance system, pension system.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash har bir davlatning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Chunki, ijtimoiy himoya tizimi aholining eng zaif qatlamlarini ya'ni kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yolg'iz keksalar, ko'p bolali oilalar va ishsiz shaxslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish hamda fuqarolarning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ijtimoiy himoya xarajatlarini byudjetdan samarali moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti xarajatlari - YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi quyidagicha:

1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
3. Iqtisodiyot xarajatlari;
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
6. Sudlarni saqlab turish xarajatlari;
7. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
8. Boshqa xarajatlar.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Ijtimoiy himoya davlat byudjeti xarajatlarining asosiy moliyalashtiriladigan sohalaridan biri hisoblanadi. Chunki, har bir mamlakat uchun aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash va ularning farovonligini ta'minlash davlatning muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Ijtimoiy himoya-o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholini qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi.

Qamrab olinish darajasiga ko'ra ijtimoiy himoya tizimi uch turda namoyon bo'ladi²⁰:

1. Barcha fuqarolar uchun teng bo'lgan hamda fuqarolarning barchasi uchun teng miqdorda amalga oshiriluvchi ijtimoiy himoya;
2. Aholining alohida guruhleri va qatlamlari ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy himoya;
3. Aholining ayrim ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolari va oilalarga qaratilgan ijtimoiy himoya.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoya tizimi jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishga yo'naltirilgan bo'lib, u umumiy, guruhli va manzilli shakllarda amalga oshiriladi.

Bu tizim aholining turli ehtiyojlarini inobatga olib, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, ijtimoiy himoya fuqarolarning munosib hayot kechirishiga sharoit yaratadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalishlar belgilanib, ularni amalga oshirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Bularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni qabul qilingan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-bobi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"²¹ deb nomlanib, bu bobda 33 ta maqsadni ichiga olgan.

Tanlab olingan maqsadlar asosida mamlakatimiz ijtimoiy sohasida o'zgarishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham aholi ijtimoiy himoyasi bo'yicha ustuvor maqsadlar belgilangan.

Farmonning 1-maqsadi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish"²² deb belgilangan bo'lib aynan ijtimoiy sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun muhim ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Hozirda bu maqsadda keltirilgan vazifalarni yildan yilga tizimli ravishda bajarilayotganini ko'rishimiz mumkin.


²⁰ Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда пенсия таъминотининг аҳамияти ШКХ Хамдамов - Science and Education, 2021

²¹ <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

²² <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030 to'g'risida"gi Farmoni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"



Rasm. 2025-yil uchun davlat byudjetining soha xarajatlari²³.

Yuqorida keltirilgan rasmda O'zbekiston Respublikasining 2025-yil uchun davlat byudjeti xarajatlarini sohalar bo'yicha taqsimlangani ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki sohalar orasida eng katta ulush ya'ni umumiy xarajatlarni 52%i ijtimoiy himoyaga ajratilgan. Bu ko'rsatgich mamlakatimizda aholi ijtimoiy himoyasiga kuchli e'tibor qaratilyotganini ko'rsatadi.

2022-2025-yillar uchun ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi²⁴

Jadval trln.so'm

No	Ko'rsatgichlar	2022-yil (ijro)	2023-yil (ijro)	2024-yil (kutilma)	2025-yil (prognoz)
1.	Ta'lim	50.3	61.2	70.5	81.8
2.	Sog'liqni saqlash	27.3	31.1	33.5	40.2
3.	Madaniyat	2.3	2.7	3.0	2.9
4.	Sport	2.0	2.6	2.9	3.2
5.	Fan	1.5	1.8	2.2	2.3
6.	Ijtimoiy nafaqalar	19.4	19.2	18.6	18.6
7.	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	11.1	13.8	16.0	18.0
8.	Ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	1.0	1.1	1.5	2.5
9.	Jami	117.7	137.2	153.6	173.9

2022-2025-yillar uchun ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda davlat byudjetida ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi barqaror va tizimli ravishda oshib bormoqda.

²³ O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

²⁴ O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, jami ijtimoiy himoya xarajatlari 2022-yildagi 117,7 trln so'mdan 2025-yilda 173,9 trln so'mgacha, ya'ni 47%ga oshishi prognoz qilinmoqda.

Bu esa davlatning aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan siyosati ustuvor ekanini tasdiqlaydi. Xarajatlar tarkibida eng katta ulush ta'lim sohasiga to'g'ri kelib, u 2022-yildagi 50,3 trln so'mdan 2025-yilda 81,8 trln so'mgacha oshishi kutilmoqda.

Bu ta'lim tizimini rivojlantirish, inson kapitaliga sarmoyani kuchaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekanini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash xarajatlari ham sezilarli o'sib, aholiga tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ifodalaydi.

Madaniyat, sport va fan sohalariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi nisbatan kichik bo'lsada, yillar davomida ijobiy o'sish sur'atiga ega bo'lib, jamiyatning ma'naviy-intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy nafaqalar bo'yicha xarajatlar hajmi nisbatan barqaror bo'lib qolayotgan bo'lsa, pensiya jamg'armasiga transfertlar hajmining oshishi keksalarni ijtimoiy himoyalash tizimini mustahkamlashga qaratilgan choralarni aks ettiradi.

Shuningdek, ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalarning bosqichma-bosqich oshib borishi aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, 2022–2025-yillar uchun ijtimoiy himoya xarajatlarning o'sib borishi davlat byudjetida ijtimoiy yo'naltirilganlikning kuchayib borayotganini va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks islohotlar izchil amalga oshirilayotganini yaqqol namoyon etadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi-keksa yoshlilarni, mehnatga qobiliyatsiz va boshqa nochor guruhlarni moddiy ta'minlash uchun davlat tomonidan joriy etilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan tizimdir. Ijtimoiy sug'utaning asosiy maqsadi nogironlik, qarilik, kasallik va boquvchisini yo'qotish kabi holatlarda shaxsni daromadsiz qolishdan himoya qiladi. Natijada, tizim mamlakatda kambag'allikni kamaytiradi, ijtimoiy tengsizlikni yumshatadi va jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risi"da 2025-yil 3-noyabrdagi PF-206-sonli farmoni belgilandi.

Farmonda davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali aholini og'ir hayotiy vaziyatlarda moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, rasmiy bandlikni rag'batlantirish va mehnat bozori barqarorligini oshirish maqsadida qaror qabul qilingan.

Farmonning asosiy maqsadlari quyidagicha²⁵:

(a) fuqarolarning og'ir hayotiy vaziyatlarda daromadsiz qolishining oldini olish hamda ularning kambag'allikka tushish xavfini minimallashtirish;

²⁵ <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3-noyabrdagi PF-206-sonli "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risi"dagi Farmoni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

(b) aholining davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimidagi ishtirokini kengaytirish va norasmiy bandlikni legallashtirish;

(d) davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimini uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida bosqichma-bosqich takomillashtirish;

(e) davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni fuqarolarning ijtimoiy sug'urta bo'yicha qo'shgan hissasiga mutanosib ravishda hisoblash va to'lash mexanizmlarini joriy etish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida ijtimoiy sug'urta tizimi yildan yilga rivojlanib aholini ijtimoiy muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda ijtimoiy himoya xarajatlarining davlat byudjetidagi ulushi ortib borayotgani mamlakatda inson manfaatlari ustuvor tamoyil sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, yagona ijtimoiy reestrni joriy etish va manzilli yordam mexanizmlarini takomillashtirish byudjet mablag'laridan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Bu esa davlat xarajatlarining shaffofligini oshirish va ijtimoiy yordamning haqiqiy ehtiyojmandlarga yetib borishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston byudjet tizimida ijtimoiy himoya xarajatlari nafaqat ijtimoiy vazifani bajaradi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratishda muhim strategik ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu xarajatlarni yanada samarali rejalashtirish va moliyalashtirish ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030 to'g'risida"gi Farmoni.

3. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3-noyabrdagi PF-206-sonli "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risi"dagi Farmoni.

4. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда пенсия таъминотининг аҳамияти ШК Хамдамов - Science and Education, 2021.

5. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari.